



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Ўзини-ўзи банд қилишда заиф бандликдан унумли бандликка ўтишнинг инновацион йўллари	84
<b>Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий хизматларнинг ўрни	88
<b>Farruh Shadiyrovich Shanazarov</b> Essence and content of the concept of poverty	92
<b>Sunnatillo Bakhriddin o‘g‘li Iskandarov</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari	95
<b>ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Анвар Нематович Холикулов</b> Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш йўллари	99
<b>Komoliddin Jurabayevich Matkarimov, Adxamjan Akbarovich Urinov</b> Transport xizmatlari eksportini modellashtirish va bashoratlash masalalari	103
<b>Shohsanam Nuritdinovna Niyozova</b> Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari	107
<b>Dilshod Sultanovich Musinov</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari	112
<b>Aziza Tolibovna Raxmonova</b> Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi	117
<b>Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	123
<b>Нигина Бахтиёрвна Рузиева</b> Изучение инновационного развития сферы услуг в зарубежных странах	127
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Suxrob Ramazonovich Bobokalonov</b> Jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili	130
<b>Malika Axmad qizi Qurbonova</b> Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri	135
<b>Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev</b> Turizmda hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillari	140
<b>Ойдин Давроновна Хамракулова</b> Зеленая экономика и экологический туризм в экономике Узбекистана	143
<b>Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов</b> Туризм хизматлари бозорининг ишлаш механизмини оптималлаштириш жараёни	147
<b>Матлубахон Абдиманабовна Куймуратова</b> Туризм соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларининг назарий масалалари	152

4. Pardayev M.Q., Qurbonov Z. N Oila biznesi va tadbirkorligi. Samarqand: SamKI, 1999. - 18-b.
5. Muxammedov M.M., Mardonov B.B. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi va daromadlari. Monografiya. «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2021. 186 b
6. Raxmonova A.T ”Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda onlayn platformalarning o'rni” Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali Vol. 4 Issue 03 | pp. 356-365 | ISSN: 2181-1865 Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

<p><b>А.Рахмонова</b></p> <p><b>Эффективность финансовой поддержки семейного бизнеса в развитии сферы услуг</b></p>	<p><b>A.Rakhmonova</b></p> <p><b>Effectiveness of financial support of family business in the development of the service sector</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В данной статье рассмотрена сущность системы финансовой поддержки семейного бизнеса в развитии сферы услуг, работа, проводимая в рамках программы "Каждая семья - предприниматель", а также способы формирования первоначального капитала в семейной предпринимательской деятельности.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> услуги, предпринимательство, бизнес, финансы, кредит, капитал, банковское дело, доходы, расходы, активы.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article examines the essence of the financial support system for family business in the development of the service sector, the work carried out within the framework of the program "Every Family is an Entrepreneur", and the ways of forming initial capital in family business activities.</p> <p><b>Keywords:</b> services, entrepreneurship, business, finance, credit, equity, banking, income, expense, assets.</p>

**Hamdam Iris o'g'li Allayorov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

### RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY ALOQA XIZMATLARI BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimiz milliy aloqa xizmatlari bozorini rivojlantirishda xorij tajribasi, shuningdek aholining axborot tizimiga bo'lgan qarashlari va aloqa xizmatlari sohasini boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, kommunikatsiya, raqam, elektron, texnologiya, yo'l xaritasi.

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida mazkur sohaning ilg'or yutuqlarini barcha tarmoq va jabhalarga keng joriy etish mamlakatimizning kelgusi ravnaqida muhim omil hisoblanadi. Zero, axborot texnologiyalari bozorining zarur tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy mahsulotlar industriyasi milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirishda, raqobatda ustuvorlikka erishishda, valyuta tushumlarining ko'payishida, import o'rnini bosuvchi milliy mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Dasturiy mahsulotlarni qisman yoki to'liq ishlab chiqish, ularni jahon bozoriga olib chiqish, eksport qilishni keng joriy etgan xorij tajribalari, xususan Koreya, Hindiston, AQSH, Xitoy mamlakatlari misolida olib qarasa, shundan dalolat beradiki, dasturiy mahsulotlar industriyasini rivojlantirish har bir sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etishga, aholini ish bilan bandligini oshirishga, intellektual mulkni shakllantirish va rivojlantirishga, davlat eksport salohiyatini kuchaytirishga, investitsiyalar jalb etishga, natijada esa, mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga olib keladi. Koreya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarning boy tajribasini o'rgangan holda bugungi kunda O'zbekistonda ham axborot texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida huquqiy baza shakllangan bo'lib, «Aloqa to'g'risida»gi, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi, «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi va boshqa qator Qonunlar, qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir. Sohaga oid 11 ta qonun, 40 dan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va

hukumat qarorlari, qator normativ-huquqiy hujjat va standartlar qabul qilingan. Qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilab kelinmoqda. Axborot va kompyuter texnologiyalari sohasiga o'qitish hamda dasturiy vositalarni realizatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatuvchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish bo'yicha normalar bir necha yillar davomida amal qilib kelmoqda. Oxirgi besh yil mobaynida dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan korxonalar, boshqa mikrofirmalar va kichik korxonalarga nisbatan yagona soliq to'lovini to'lashda imtiyozlar berilgani ularning ish samaradorligini oshirishda xizmat qilmoqda.

So'nggi yillardagi jahon axborot texnologiyalari bozoridagi ijobiy o'zgarishlar globallashuv jarayonini tezlashuviga, jamiyatni hamda iqtisodiyotni axborotlashuviga olib keldi. Bu esa o'z navbatida insoniyatni axborotga bo'lgan qarashini o'zgartirdi va biznes qilishning yangi qirralarini ochib berdi. Bunday o'zgarishlar mamlakatimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat shakllanishi axborotni asosiy resurslardan biriga aylanishiga olib keldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishi axborotlarni saqlash, qayta ishlash, uzatish imkoniyatlarini yaratadi. O'z o'rnida undagi axborot almashinuvdagi axborotlarni uzatish, qabul qilish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari rivojlanishi bilan bevosita bog'lash mumkin. Bunday rivojlanish mamlakatimizni kelajakda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin egallashiga poydevor hisoblanadi.

O'zbekistonda telekommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash hamda «axborotlashgan jamiyat» sari jadal intilish maqsadida amaliy choralar ko'rilmog'da. Ammo, bu borada qilingan ishlardan kelgusida qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'lami nihoyatda kengdir. Jahonda telekommunikatsiya sohasi rivoji juda tezlik bilan ro'y berayotganligi sababli bu boradagi har qanday sustkashlik mamlakat taraqqiyotiga o'ta salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya sohasining o'rnini va ahamiyatini ta'riflashda uning kamida ikki tarkibiy qismini - telekommunikatsiya va axborot yaratish sohaslarini ajratib qarab ko'rish lozim. O'zbekiston telekommunikatsiya sohasining rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini tahlil qilgan holda sohaning ustuvor va jadal rivojlanishini ta'minlash, uning bozor islohotlari talablariga mos keluvchi zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-amaliy masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan, jumladan akademik S.S. G'ulomov, B.A. Begalov, R.H. Alimov, O.M. Abdullayev, A.T. Kenjabayev, T.S. Qo'chqarov, T. Iminov, L. Shibarshova, A. Qodirov, Sh.A. Tursunov, A. Aripov, I. Ye. Jukovskaya, B.K. G'oyibnazarov, M. Maxmudov, H. Muhitdinov va boshqalar<sup>1</sup> tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda axborotlashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Aloqa xizmatlari sohasi butun iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardosh, samarali va qiymati nuqtayi nazaridan afzal bo'lgan aloqa tarmoqlari ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini oshirishga, ish o'rinlarini ko'paytirishga, eksport salmog'i va soliq tushumlarini o'sishiga, ya'ni iqtisodiy taraqqiyotni orqaga tortuvchi monopol xizmat ko'rsatishdan tubdan farq qiladigan ijobiy tendensiyalarni shakllantirishga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bularning barchasi o'z navbatida sohani yanada jadalroq rivojlantirishni taqozo etadi. Ya'ni telekommunikatsiya tarmoqlari nafaqat jamiyat taraqqiyotini va mamlakat xavfsizligini ta'minlashning, balki mamlakat iqtisodiyoti

<sup>1</sup> G'ulomov S.S., Abdullayev O.M. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar//Toshkent-2019.-T.:Fan 2010. Alimov R.X.? Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanishi va rivojlanishi.Toshkent, 2001. Kenjabayev A.T. “Tadbirkorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari” Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.Toshkent-2005 y. Qo'chqarov T.S Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligi axborot tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent-2019 y. Jukovskaya I.Y Raqamli iqtisodiyot shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini statistika faoliyatida foydalanish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.- Toshkent 2020.

barqaror o‘sib borishining muhim omili bo‘lib qolishining asosiy shartlaridan biridir. Bu esa sohaning rivojiga bo‘lgan alohida e‘tiborni talab etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Aloqa xizmatlari sohasini boshqarish turli usullar bilan amalga oshiriladi va ularning har biri boshqaruvchi tizimning boshqariluvchi tizimga bo‘lgan muayyan ta’siri bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston aloqa xizmatlari sohasining o‘ziga xos xususiyatini va uni boshqarish pillapoyasini hisobga olgan holda ko‘rib chiqilayotgan boshqarish usullarini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Soha ichida muvofiq muhitni ta’minlaydigan, sohaning o‘z doirasida qo‘llaniladigan usullar.

2. Aloqa xizmatlari sohasini davlat tomonidan boshqarish usullari.

Birinchi guruh usullari uch kichik guruhga bo‘linadi: iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va huquqiy boshqaruv usullari. Ushbu usullarning barchaga ma’lumligiga qaramasdan shuni aytib o‘tish kerakki, ular O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muhit yuqori darajada dinamikligi natijasida tez o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Bularning hammasi aloqa xizmatlari sohasi menejmenti tomonidan uning har kungi faoliyatida hisobga olingan bo‘lishi kerak.

Birinchi guruh usullaridan farqli ravishda ikkinchi guruh usullari respublikaga xos xususiyatlarni hamda aloqa xizmatlari sohasi bozori shakllanishi dinamikasini hisobga olgan holda hali yetarli darajada ilmiy jihatdan tahlil qilinmagan. Bizning fikrimizcha, bunga sabab respublikaning dunyo iqtisodiy maydoniga jadal kirib borishi hamda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning mustaqillikning juda qisqa muddatlarida yuqori sur’atlar bilan rivojlanishiga nisbatan bu jarayonlarni ilmiy tahlil qilishning ortda qolayotganligidir.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekistonda hozirgi sharoitda aloqa xizmatlari sohasi korxonalarining ko‘plab muammolari an’anaviy boshqaruv usullari yordamidagina qoniqarli hal etilishi mumkin emas. Xo‘jalik yuritishning yangi sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini ta’minlaydigan menejerlar, ishlab chiqaruvchilar, texnik mutaxassislar, tijorat xodimlari va pirovard iste’molchilarning kuch-g‘ayratini birlashtiradigan, firmani iste’molchi va bozor talablariga yo‘naltiradigan, unga atrof-muhit omillari o‘zgarishiga muvofiq ish tutish imkonini beradigan boshqaruv tizimi talab qilinadi. Qolaversa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining butun dunyodagi singari O‘zbekistonda ham tobora ortib borayotgani, bu soha subyektlarining tabiiy monopol xususiyati yo‘qolib borayotganligi, xilma-xil aloqa turlarining jadallik bilan rivojlanishi, bozorning raqobatlashuvchi kompaniyalarning turli xildagi xizmatlari bilan to‘lishi xizmat ko‘rsatish xususiyatlarini hisobga olgan holda, sohani investitsiya faoliyatini rivojlantirishdan kelib chiqib boshqarishni tashkil etishni juda dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu bilan bir qatorda tashqi muhit omillarining turli-tumanligi, ularning dinamikasini, aloqa xizmatlari sohasi oldidagi eski va yangi muammolar soha korxonalarini marketing yondoshuvidan foydalanishga, aniq va chuqur o‘ylangan investitsiya faoliyati strategiyasini ishlab chiqishga, zarur elementlardan, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan monitoring tizimidan hamda tashqi omillar va ichki imkoniyatlarni bog‘lovchi boshqaruv tizimidan foydalangan holda, ularni omilkorlik bilan amalga oshirishga undamoqda.

Aloqa xizmatlari sohasini boshqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tasniflanishi 1-rasmda keltirilgan. Fikrimizcha, ushbu rasmda keltirilgan sohani boshqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillar orasida yuqori ta’sir kuchiga ega omil bu investitsiyalash uchun jalb etilgan ichki moliyaviy mablag‘larning yetishmasligidir. Chunki xizmat ko‘rsatish sohasida shakllanib borayotgan raqobat muhitida muqim o‘rin egallash uchun har bir korxonaga avvalambor moliyaviy barqarorlik va moliyaviy xazinalarga ega bo‘lishi darkor.

Tashqi omillar orasidagi eng katta xavf bu sohani katta miqdordagi tashqi qarzlarni mavjudligi hisoblanadi. Bu yerda tashqi qarzlari deganda telekommunikatsiya tarmog‘ini modernizatsiya qilish hamda yangi zamonaviy raqamli telefon stansiyalarini qurish uchun Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlaridan uzoq muddatga olingan katta miqdordagi investitsiyalar tushuniladi.



**1-rasm. Aloqa xizmatlari sohasini boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar<sup>1</sup>**

Aloqa xizmatlari bozorida kuchli raqobat muhiti shakllangan va bu raqobat muhitini asosiy elementlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bozorda katta hajmga ega bo'lgan xorijiy investitsiyali korxonalarni faoliyat yuritishi;
- an'anaviy telefon aloqasi o'rni mobil aloqa tizimi egallayotganligi;
- internet xizmatlari bozorini rivojlanishi;
- raqamli televediniya tizimini jadal rivojlanishi;
- barcha bozor ishtirokchilari tomonidan keng miqyosda qo'shimcha xizmat turlarini joriy etilganligi;
- simsiz aloqa tizimini shakllanganligi va rivojlanish darajasini yuqoriligi;
- iste'molchilarning yangi zamonaviy aloqa xizmatlariga bo'lgan talabini yuqoriligi.

Hozirgi paytda butun dunyoda aloqa xizmatlari marketingini boshqarish tizimi va uning tashkiliy tuzilmasi buni yangicha mushohada qilish va islohotlar o'tkazishdan iborat tadrijiy rivojlanish bosqichini boshdan kechirmokda. Bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xizmatlarining jadallik bilan rivojlanishi, bozor munosabatlari rivojining asosiy qonuniyatlari qaror topishi va yangi yo'nalishlar paydo bo'lishi, iqtisodiy munosabatlarning, shu qatorda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xizmatlarining globallashuvi bilan bog'liqdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rni shuni aytish mumkin-ki, hozirgi kunda aloqa xizmatlari bozorining kengayishi, yangi xizmat turlarining joriy etilishi, mavjud xizmat turlarining hajmini oshirish, O'zbekiston bozoriga xorijiy aloqa xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlarning kirib kelishi, ayrim xizmat turlari bo'yicha ichki bozorda raqobatchilik holatining yuzaga kelishi sharoitida ish yuritish aloqa korxonalari uchun ko'rsatilayotgan xizmatlarni bevosita iste'molchilarga yetkazib berish hamda mustahkam bozor segmentiga ega bo'lishda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlangan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. 1.O‘zbekiston Respublikasining «Aloqa to‘g‘risida»gi Qonuni. 1992 yil.
2. 2.O‘zbekiston Respublikasining «Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi qonuni. 1999 yil.
3. 3.O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida». Qonuni. 2003 yil.
4. 4.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari.
5. 5.O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi statistik ma’lumotlari.
6. 6.«O‘zbektelekom» AKning statistik ma’lumotlari.
7. <http://www.ict.gov.uz>
8. <http://www.uzinfocom.uz>
9. [www.bloomberg.com](http://www.bloomberg.com)
10. ITU (xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi) ma’lumotlari

<p><b>Х.Аллаёров</b></p> <p><b>Особенности национального рынка услуг связи в условиях цифровой экономики</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье освещен зарубежный опыт при развитии национального рынка услуг связи нашей страны, а также взгляды населения на информационную систему и факторы, влияющие на управление сферой услуг связи.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> информация, связь, цифровая, электронная, технология, дорожная карта.</p>	<p><b>Kh.Allayorov</b></p> <p><b>Features of the national market for communication services in the digital economy</b></p> <p><b>Abstract.</b> In this article, the foreign experience in the development of the national market of communication services of our country, as well as the views of the population on the information system and the factors affecting the management of the field of communication services are highlighted.</p> <p><b>Keywords:</b> Information, communication, digital, electronic, technology, road map.</p>
--	---

**Нигина Бахтиёрвна Рузиева** – СамИЭС и.о. доцента, PhD

**ИЗУЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ**

<p><b>Аннотация.</b> В данной статье было рассмотрено инновационное развитие отраслей экономики, которое обеспечивает до 25-30% роста ВВП во многих развитых странах, что проявляется в устойчивости, качестве и экологичности производства и оказании услуг на основе обеспечения, высокого технологического уровня производства наукоемкой продукции и услуг.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> экономика, услуги, инновации, продукция, развитие, опыт, бизнес, государство.</p>
---

**Введение.** В условиях трансформации экономики нашей страны и интенсивной интеграции экономики страны в глобальную экономику важно активно исследовать передовой мировой опыт инновационного развития отраслей сферы обслуживания для предотвращения рисков потерь и проблем по внедрению новшеств в организационно-экономический механизм. Успешный мировой опыт показывает, что большинство инноваций создается в сфере бизнеса. Это в первую очередь крупные предприятия, которые организуют фундаментальные и прикладные исследования, финансируют и коммерциализируют научные центры, разрабатывают крупные проекты, обобщающие результаты инновационных исследований, ищут новые идеи и рынки в глобальном масштабе, организуют производственный процесс в разных странах.

**Анализ тематической литературы.** Комплексный анализ показывает, что теоретико-методологические исследования проблем инновационного развития рассмотрены в работах Д. Рикардо, А. Смит, Н. Калдор, Р. Солоу, А. Янг, Й. Шумпетера, Н. Кондратьева, В. Вернадского, Д. С. Львова, С.М. Меньшикова, Ю.В. Якорца, Т. Хегерстранда, Дж. Фридмена и др.

**Методология исследования.** В ходе исследования использовались методы анализа и синтеза, индукции и дедукции, сравнения и группировки и логика.

**Анализ и результаты.** Сегодня можно выделить три основных модели

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.